

O'zbekistonda Ma'naviy Yangilanish Omillari

Sodiqov Sanjarbek Subixoniddin o'g'li¹

Anatatsiya: Maqolada ma'naviy yangilanishning muvaffaqiyatli amalga oshishi ma'lum mezonlar, omillarga, asoslanganligi ochib berilgan. Ma'naviy yangilanish mezonlari jamiyat, shaxsning ma'naviy ongiga ta'sir etib, uni shakllantiruvchi mezonlar: milliy xususiyatlar, qadriyatlar, milliy turmush tarzi, milliy-tarixiy meroslar hisoblanadi. Ular asosida shaxs dunyoqarashi shakllanadi va bunday dunyoqarash albatta, milliy yangilanishga ta'sir etadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy yangilanish, ma'naviy ong, milliy-tarixiy omil, innovatsion omil, ilmiy-texnologik omil, milliy iqtisod, dunyoqarash.

Ma'naviy yangilanishning muvaffaqiyatli amalga oshishi ma'lum mezonlar, omillarga, asoslanadi. Ma'naviy yangilanish mezonlari jamiyat, shaxsning ma'naviy ongiga ta'sir etib, uni shakllantiruvchi mezonlar: milliy xususiyatlar, qadriyatlar, milliy turmush tarzi, milliy-tarixiy meroslar hisoblanadi. Bundan tashqari milliy ijtimoiy-tarixiy makonga tegishli bo'lgan barcha iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy, estetik va boshqa tizimlar asosida, ularning insonga ta'siri natijasida shakllanuvchi ma'naviy ong elementlari, g'oyalar, dunyoqarash, ilmiy nazariyalar. Ular asosida shaxs dunyoqarashi shakllanadi va bunday dunyoqarash albatta, milliy yangilanishga ta'sir etadi.

Yuqorida qayd etilgan sohalar jamiyatda ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda ma'naviy mezonlarni shakllantiradi. Ma'naviy yangilanish omillariga bizningcha, quyidagilarni keltirish mumkin:

- ✓ ma'naviy yangilanishning iqtisodiy omillari.
- ✓ ma'naviy yangilanishning siyosiy omillari.
- ✓ ma'naviy yangilanishning huquqiy va estetik omillari.
- ✓ ma'naviy yangilanishning ilmiy texnologik omillari.

Ma'naviy yangilanishning omillarini shakliga ko'ra quyidagicha tavsiflaymiz:

milliy-tarixiy omillari.

innovatsion omillari.

Qayd etilgan omillarga atroflicha to'xtalib o'tamiz:

Ma'naviy yangilanishning iqtisodiy omillari jamiyatda moddiy ishlab chiqarish, iqtisodiy sohaning barcha elementlari, iqtisodiy ishlab chiqarish kuchlari, bu sohada yuzaga kelayotgan iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy sohada o'zgarishlarga olib keluvchi texnologik potensial va boshqalar. Bu yerda masala jamiyatning iqtisodiy sohasi va unda yuzaga kelayotgan munosabatlar ma'naviy taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatish mumkin? Shaxs va jamiyatning iqtisodiy hayotiga tegishli faoliyati uning ma'naviyati va ma'naviy faoliyati bilan bog'langan.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida iqtisodiy taraqqiyot ma'naviy taraqqiyotga ham sabab bo'lgan. O'zbekiston tarixida hamda Markaziy Osiyo va butun Yevropa tarixida iqtisodiy ulkan ahamiyatga ega bo'lgan. "Buyuk Ipak yo'li nafaqat iqtisodiy munosabatlar, balki, madaniy va ma'naviy munosabatlarning taraqqiyoti uchun ham ulkan imkoniyatlar yaratdi. Xitoyga islom dinining tarqalishi o'z davrida ulkan global ahamiyatga ega bo'lgan. Buyuk Ipak yo'lisiz amalga oshmagan bo'lar edi. Bu yo'l Xitoyni Markaziy Osiyo orqali Yevropa bilan shunchaki bog'labgina qolmasdan, qadimgi sivilizasiyaning, keyinroq Sharq Uyg'onish davrining vujudga kelishiga ulkan strategik ahamiyatga ega bo'ldi". [1]

Albatta, jamiyatning asosida turgan iqtisodiy va ma'naviy munosabatlarning o'zaro dialektik aloqadorligi nuqtai nazaridan iqtisodiy taraqqiyot ma'naviyat taraqqiyotini xam belgilaydi. Ma'naviyat va uning barcha shakllari va elementlarida iqtisodiy sohaning xususiyatlari aks etadi. Bu ikki sohani bog'lab turuvchi omil – shaxs va uning salohiyati, inson omili. Insonning iqtisodiy va ma'naviy salohiyati o'zaro bog'liq bo'lib, dialektik aloqadorlikda iqtisodiy va ma'naviy sohalarning taraqqiyoti bir-birining taraqqiyotiga ta'sir etadi. Jamiyatning bu ikki muhim sohasining taraqqiyoti insonga yo'naltirilgan. Bu sohalarda yuzaga keladigan yutuqlar, kirib kelayotgan progressiv elementlar inson hayotining har tomonlama yaxshilanishiga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining tarixiga nazar solsak, iqtisodiy yuksalish ma'naviy yuksalish bilan uyg'unlashgan holatda jamiyat yuksak taraqqiyotga erishgan. Bunga Uyg'onish davrlari, sivilizasiya taraqqiyoti bunga misol bo'la oladi.

¹ Andijon Davlat Universiteti Falsafa kafedrası doktoranti

Hozirgi davrda O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish, bu sohada innovasiyalarni joriy etish hamda bu asosda innovasion faoliyatni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmaydi. “Yangi O‘zbekiston modernizatsiyalashgan iqtisodiyotga tayanadi..... Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatidir.

Iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillaridan biri – har bir fuqaro boy bo‘lsa – davlat boy bo‘ladi, har bir oila farovon bo‘lsa – mamlakat farovon bo‘ladi.”[2]. Mamlakatimiz rahbari aholida tadbirkorlikka shu ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish tizimini takomillashtirish vazifasini qo‘ydi.

O‘zbekistonda iqtisodiy sohada amalga oshiriladigan islohotlar, modernizatsiya jarayonlari jamiyatda inson taraqqiyoti, ijtimoiy adolat tamoyilini barqaror iqtisodiy taraqqiyotga muntazam tadbiriq etib borish, ma‘naviy taraqqiyotga xizmat qiladi. Qayd etilgan muammolarni hal etish mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ya‘ni “Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga, aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir.” [3]

Ma‘naviy yangilanishning huquqiy asoslari jamiyatda shaxsning erkinligini e‘tirof etish bilan birga uning burchini, ma‘suliyatini va ularni amal qilishini taqazo etadi. Ma‘naviy taraqqiyot va ma‘naviy yangilanish jamiyatda hamon ustivorligi tamoyiliga amal qilinganda jadal sur‘atlar bilan amalga oshadi. Qonun ustivorligiga amal qilish, konstitusiyani hurmat qilish hamda uni ijtimoiy-ma‘naviy qadriyatlarini muhim elementi sifatida tan olish sub‘yektiv omil tomonidan jamiyatning nafaqat ma‘naviy, balki iqtisodiy taraqqiyotga xam xizmat qiladi. “Ya‘nikim, bu barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatning ta‘sirini bo‘lgan qonun ustivorligiga rioya etish majburiyatgina emas, fazilatga aylanmog‘i lozim. Buning uchun odamlarni va, avvalo, bularni demokratiyaga o‘rgatish zarur, toki kishi shaxsiy javobgarlik hissini tuyish, ahloq me‘yorlariga rioya etish uning uchun ichki zaruratga aylansin. Niyat so‘z va ish birligi har qanday xarakatning samarasini belgilaydi”. [4]

Ma‘lumki, Yevropa davlatlari asosan o‘z ma‘naviyatida qonun ustivorligi, qonunga rioya qilish jihatlari bilan ajralib turadi. Bu borada G‘arb ma‘naviyati, aynan ana shu jihatlarni o‘rganish foydali bo‘lar edi.

Korrupsiyani xis qilish halqaro indeksiga ko‘ra, O‘zbekistonda korrupsiya barcha sohalarda mavjud bo‘lib, bu holat mamlakatimizni jahon xamjamiyatida korrupsiyalashgan davlatlardan biri sifatida qabul qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Halqaro antikorrupsion tashkilot TRARSPARENCY o‘rganish natijalariga ko‘ra 100 ballik tizimda mamlakat 25 ballga ega bo‘ladi. Bunday ko‘rsatkich Kamerun va Tojikiston bilan bir xil bo‘lib bu halqaro xamjamiyatda eng yomon hisoblanadi. Bu jiddiy salbiy kamchiliklar yoshlarda milliy ma‘naviy ong shakllanish, millat va mamlakatga munosabat, ularga aloqador tashqi migratsiya jarayonlariga jiddiy ta‘sir etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizdan chet davlatlarga o‘qish va ishlash uchun chiqib ketgan va ketishni istayotgan yoshlarning soni muntazam ortib bormoqda. Bu holat ayniqsa yuqori salohiyatga ega bo‘lgan yoshlar orasida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu jarayonga yana chet davlatlarga Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistondan boradigan yoshlar uchun qulay sharoitlar yaratib berayotgani, talantli yoshlarni, grant asosida o‘qishga qabul qilishlari, turli kreditlar, bepul yo‘llanmalar bilan ta‘minlanishi kabi harakatlar xam o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqdi. Bundan xulosa shuki, yoshlar faoliyat ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan sohalarda ular uchun yaratilgan sharoitlarning talab darajasida emasligi, korrupsiyaning majudligi kabi holatlar mazkur yoshlarning tashqi migratsiyasiga sabab bo‘lmoqda.

Aytish mumkinki, ma‘naviyat tizimida ijobiy dunyoqarash, huquqiy bilimlar alohida o‘rin egallaydi. Ma‘naviy ong va ma‘naviy faoliyat tizimida huquqiy ong va huquqiy faoliyat xam muhim ahamiyat sifatida ishtirok etadi. Jamiyat demokratlashib borgani sari ma‘naviyat tizimining huquqiy elementlari taraqqiy etib boradi. Chunki demokratlashib borayotgan davlatda qonun ustivorligi tamoyili muxim ahamiyat kasb etadi.

“2022-20226 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning strategiyasi” quyidagi yo‘nalishlardan iborat:

- Yangi O‘zbekiston strategiyasi
- Halqparvar davlat
- Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish
- Adolatli ijtimoiy siyosat
- Ma‘naviy taraqqiyot
- Xavfsizlik va tashqi siyosat
- O‘zbekiston va umumbashariy muammolar

Unda huquqiy taraqqiyot qonun ustivorligi jamiyatni strategik taraqqiyotini belgilab beruvchi alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Unda ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish bilan bog‘liq vazifalar orasida “Yangi O‘zbekiston ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish borasida “Aholi o‘rtasida huquqiy mafkurani shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish” vazifasi qo‘yilgan. [5]

Aholi o‘rtasida huquqiy ma‘suliyatni shakllantirish jamiyatda ma‘naviy yangilanish hamda ma‘naviy taraqqiyotni yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq muhim vazifalar bo‘lib, uning amalga oshuvi jamiyatda qonun ustivorligini ta‘minlash, adolatli jamiyat qurish va unga bog‘liq ravishda aholining huquqiy ongini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy dunyoqarash tizimida huquqiy dunyoqarash muhim, shaxs huquqiy bilimlarini hayotda va ijtimoiy munosabatlarda qo'llagan holda o'z hayoti va faoliyatiga qonun nuqtai nazaridan qarash, ijtimoiy faoliyatini qonun doirasida tahlil qilishni anglatadi. Jamiyatning ma'naviy barqarorligidagi muhim vazifalardan biri inson huquqiy dunyoqarashi, bilimini o'z hayotiga tadbiiq etish, xar qanday xatti-harakatga va ijtimoiy faoliyatiga, qonunga mos ravishda amalga oshirish. Mamlakatimizda inson huquqini himoya qilish, unga amal qilish hamda fuqarolarda huquqiy madaniyatni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Maqsad jamiyatda boshqa ma'naviy qadriyatlar qatori huquqiy qadriyatlarni shaxs tomonidan muhim qadriyat sifatida e'tirof etilishiga erishishdan iborat.

Huquqiy qadriyatlarjamiyatning demokratik taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi hamda fuqarolik burchi, fuqarolik faol pozitsiyasini anglab yetishda muhim rol o'ynaydi. Jamiyat a'zolarida ilg'or, anglangan extiyojlarning shakllantirish huquqiy qadriyatlarni rivojlantirishda katta o'rin egallaydi.

Ma'naviy yangilanishning siyosiy omillari to'g'risida so'z borganda avvalo, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarini ustuvor yo'nalish sifatida davlatimiz va Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan belgilanganligini e'tirof etish kerak. Jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy hayoti mamlakatda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga ham bog'liq. Chunki qanday siyosat olib borilishi, bu siyomatning jamiyat va uning aholisi extiyojlarini qanday darajada aks ettirish, jamiyat va uning a'zolarining manfaatlariga mos tushishi, milliy taraqqiyotga xizmat qilishi muhim bo'lib, bu aytilgan mezonlar jamiyat taraqqiyotini bevosita belgilab beradi.

Xulosa o'rnida Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviy yangilanish jarayonida ilmiy-texnologik omil o'ziga xos bir tomondan rasionalistik va ikkinchi tomondan, aksiologik mohiyatga ega. Yuksak ma'naviyatning muhim omili sifatida ilm-fan hamda texnologik taraqqiyot jamiyat tarixining barcha bosqichlarida xam muhim rol o'ynagan. Ma'naviy ongning rasionalistik elementlari ilmiy dunyoqarashning xususiyatlarini aks etgan holda jamiyat va inson ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatib kelgan. Bu hodisalar jamiyatning ma'naviy qadriyatlar tizimida muhim element sifatida mavjud bo'lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldasheva F Avtoreferat T.: "Impress Media" MCHJ 2019 yil 20-21 bet.
2. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021 yil 138-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021 yil 199-bet.
4. Soliyev U Sharq va G'arb: madaniyatlarini tutashgan manzillar. T.: Yangi asr avlodi, 2008. B-88
5. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2021 yil 34-bet.
6. Abdilkadimovna, K. N. (2022). THEORETICAL ANALYSIS OF GENDER RELATED WORDS IN ENGLISH LANGUAGE. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(2), 179-182.
7. qizi Shodieva, G. N., & Dusmatov, H. H. (2022, July). RINCPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK LANGUAGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 11, pp. 38-43).
8. Komilova, N. (2022). GENDERED LEXICON OF ENGLISH LANGUAGE. *Science and innovation*, 1(B4), 192-194.
9. Do'smatov, D. qizi Shodiyeva, GN (2022, May). *O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH*.
10. Shodiyeva, G. N. K., & Dustmatov, H. (2022). CLASSIFICATION OF WORDS IN UZBEK AND ENGLISH: IN THE EXAMPLE OF VERBS. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(4), 234-237.
11. qizi Shodieva, G. N., & Dusmatov, H. H. (2022, July). RINCPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK LANGUAGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 11, pp. 38-43).